

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

2-son

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

	TAHRIRIYAT	
	4	Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati
	TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI	
N.Abdullayeva	5	Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida
A.Rasulov	10	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o'qitishning zarurligi
D.Axmadjonov	13	Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish
T.Sultanov	17	Ilk boshlang'ich ta'lim pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari
S.Toshboyev	21	Ta'limda innovatsiyalar va ularning tahlili
	TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI	
J.Ravshanov	25	O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
K.Abdullayev	27	Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
H.Bakiyeva	31	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish
M.Mamadjanova	34	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash
G'.Nabiyev	38	Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish
Z.Umarova	40	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi
D.Ismoilova	44	K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar
	TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT	
Sh.Qo'qonboyeva	47	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash
	ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
R.Musurmonov A.Suyarov	52	Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuv imkoniyatlari
F.Maxmudova	56	Ta'limda integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida
D.Ximmataliyev B.Xayridinov	59	Masofaviy ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati
S.Qorayev N.Tirkashev	62	Kompetensiyaviy ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida sifat uyg'unligining asosi
A.Abdullayev	65	Professional ta'lim tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish
I.Qodirov	68	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish

Turdali SULTANOV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

ILK BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASINING MUHIM JIHATLARI VA ULARNING IZOHLARI

Annotatsiya

Boshlang'ich maktabda o'qishni endi boshlayotgan o'quvchilar bilan ishlash, ularga ta'lim berish va xulq-atvorining rivojlanishiga erishish juda katta mas'uliyat talab etadi. Bunda, pedagogika muhim ahamiyatga ega, chunki u o'qituvchilarga sinfni tashkil qilish uchun eng yaxshi tajribalar haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, pedagogika, sifatli ta'lim, bolalar bilan ishlash, boshlang'ich sinf, sinf muhiti, pedagogik maslahatlar.

Работа с учащимися, которые только начинают ходить в начальную школу, обучение и развитие поведения требует большой ответственности. В то же время педагогика важна, поскольку дает учителям представление о лучших методах организации занятий.

Ключевые слова. Учителя начальных классов, педагогика, качественное образование, работа с детьми, начальная школа, школьная среда, педагогический совет.

Working with students who are just starting to go to primary school, learning and developing behavior requires a lot of responsibility. At the same time, pedagogy is important because it gives teachers an idea of the best methods for organizing classes.

Key words. Primary school teachers, pedagogy, quality education, work with children, primary school, school environment, pedagogical council.

Boshlang'ich sinfda pedagogikaning muhim jihatlari har doim inobatga olinishi lozim. Shunday jihatlardan quyidagilar bu maqola orqali yoritib borilgan: tashkilot; umumiy maqsadlar ravshanligi; o'quvchilarga beriladigan uy vazifalari; sinfdagi muhit (sharoit); xulq-atvorni boshqarish; birgalikda o'rganish (jamoaaviy); shaxsiylashtirilgan ta'lim va o'rganish; havolalarni aniq qilish; dialogik o'qitish va o'rganish; o'rganishni baholash.

Tashkilot (dars va uning tashkiliy jihatlari). Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari har doim tashkilotchilik qobiliyatlari bo'yicha yuqori bo'lishi lozim. Ularning resurslari mudatidan oldin tayyorlangan, dars davomida yaxshi boshqarilgan va ayniqsa, maqsadga muvofiq va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Ular yaxshi sur'atni saqlab, darslarining har bir soniyasi hisobga olinishini ta'minlash orqali dars vaqtidan unumli foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi tashkilotchilik muvaffaqiyatli amalga oshirilganda, sinf o'quvchilari o'z-o'ziga ishonish, erkinlik xislatlarini yaxshi shakllantira oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining dars jarayonidagi tashkilot ishlarida kamchiliklari asosan, resurslarining betartib tashkil etilishi va muvofiqligi (maqsadga muvofiq bo'lmashligi), o'quv vaqtining unumdorligining past bo'lishi, o'qituvchi kutgan natijaning aniq emasligi, sinf tartib-qoidalarini boshqara olmaslik va o'quv mashg'ulotlarini boshqarishdagi xatoliklarda namoyon bo'ladi. O'qituvchining darsni pedagogik tashkil qilishdagi xatolari tufayli, o'quvchilar erkinlik va o'ziga ishonganlik kabi fazilatlarini yaxshi

rivojlanmaydi.

Ilk boshlang'ich ta'lim pedagogikasining quyidagi muhim jihatlari keltirib o'tish lozim.

1. Umumiy maqsadlar ravshanligi. Dars sifatiga e'tibor beruvchi o'qituvchilar darslarda keltirilgan tushunchalar va g'oyalar barcha bolalar tomonidan tushunilishini ta'minlashi muhimdir. Ular bolalarning darsning asosiy g'oyalari tushunganliklarini tekshirishlari va tushunish aniq yoki to'liq bo'lmasa, dars yoki mashg'ulot davomida qisman o'zgartirishni talab qilsa ham ularga yordam berish uchun pedagoglar ularning o'rganish jarayoniga aralashishadi. Garchi ko'pchilik o'qituvchilar dars faoliyatining o'rganish maqsadi aniq bo'lishini ta'minlangan bo'lsa-da (masalan, doskaga "o'quv maqsadlari" ni yozish orqali), o'qituvchilar, bolalar bu nimani anglatishini tushunishlariga ishonch hosil qilishda ayniqsa sabrli bo'lishlari lozim. Albatta, bunday sinflardagi o'quvchilar o'zlaridan nimaga erishishlari va buni amalga oshirish uchun qancha vaqt ajratilgani haqida juda aniq va tushunarli tasavvurga ega bo'la olishadi.

Aksincha, ayrim malakasiz pedagoglar, umumiy maqsadlar, o'rganish tushunchalari va g'oyalari unchalik aniq va tushunarli qilib ko'rsatib bera olmaydi. Bunday hollarda, o'qituvchilar o'quvchilarning asosiy tushunchalar va g'oyalarni tushunishlarini tekshirish va tuzatishda sekinroq bo'ladi, ya'ni o'z vaqtida tushuntirish ishini olib bormaydi yoki umuman bolaning qanchalik tushunganiga qiziqib ko'rmaydi. Ushbu sinflardagi bolalar o'zlarining dars maqsadlaridan xabardor bo'lishsa-da, ularni to'liq tushunganlari yoki ularga qanday erishishlari haqidagi tasavvuri aniq shakllanmaydi va ular bu maqsadlarga erishish uchun juda kam e'tibor va motivatsiyaga ega bo'ladi.

2. O'quvchilarga beriladigan uy vazifalari. O'quv jarayonlari a'lo va yaxshi tashkil etilgan maktablar o'qituvchilari uy vazifalarini yanada mazmunli va bolalar o'rganayotgan narsalarga aniqroq bog'lashga harakat qiladi. Ular uy vazifasini belgilashda yanada moslashuvchan yondashuvga ega bo'lishga intiladi, bu esa bolalarning tushunchasini kengaytirish va chuqurlashtirishni maqsad qiladi.

Ammo, ta'lim sifati past bo'lgan maktablarda o'qituvchilar uy vazifasini ular talab qilingani uchungina qo'yishadi va ishning o'zida bolalarning sinfda o'rganayotgan narsalari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan holatlar ham bo'ladi. O'qituvchilar dars davomida paydo bo'lgan imkoniyatlardan foydalangan holda uy vazifalarini belgilashda rejalashtirilganidan boshqa misollar keltirilmagan.

3. Sinfdagi muhit (sharoit). Sinfdagi iqlim (sinfdagi umumiy tuyg'u, o'qituvchi-o'quvchi va o'quvchi-o'quvchi munosabatlari orqali tasdiqlanadi) boshlang'ich sinf o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda, bolalarning ilk jamoaviy birlik, tengdoshlarini hurmat qilish, ularga yordam berish va doimo qo'llab-quvvatlash kabi ilk xislatlar shakllanadi. Sog'lom muhitga ega sinfda, bolalar bir-birlari bilan sog'lom raqobat va do'stona rishtalarni joriy eta oladi.

Aksincha, ta'lim sifati past bo'lgan maktablarda, yoxud malakasiz pedagoglar ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida nosog'lom va yoqimsiz munosabatni keltirib chiqarishga sabab bo'lib qoladi. O'quvchilar bir-biri bilan dushmanlik, qarama-qarshilik hislarini namoyon etadi va bir-biriga yordam berish va jamoa sifatida ahillikda ish olib borishi juda qiyin bo'lib qoladi. Bunday muhit bolalar uchun katta noqulayliklar va salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunday nosog'lom muhitning shakllanishida pedagoglarning ko'proq salbiy munosabatda bo'lishi, ya'ni norozilik, tanbeh berish, o'quvchini yoqtirmasliklarini ifodalash va h.k. sabablar keltirilishi mumkin. Yoqimsiz va nosog'lom muhitda ta'lim oladigan bolalarning muloqot qilish va hamkorlikda ish olib

borish qobiliyatlari juda past bo'ladi.

4. Xulq-atvorni boshqarish. Xulq-atvorni boshqarishni ko'rib chiqishda pedagoglar o'rtasidagi uchta farqlarni keltirish mumkin. Yaxshi o'qituvchilardan dars olgan bolalar kamroq bezovtalanishadi va kamdan-kam hollarda tartib-intizomga muhtoj bo'lishadi. O'qituvchilar bolalarning xatti-harakatlarini to'g'rilashlari kerak bo'lgan joyda, ular hazil orqali yoki jim eslatma ishlatishadi.

Lekin malakasiz pedagoglardan saboq oluvchi bolalarda intizomning umumiy darajasi odatda past bo'ladi. Bolalar ko'proq tartibsizlikka uchraydi va o'qituvchilar ularni tez-tez jazolaydi. Intizom ko'pincha ommaviy bo'lib qoladi va ba'zida tahdidlar, shaxsiy hujumlar, bolalarni sharmanda qilish yoki kamsitish bilan bog'liq bo'ladi. Bu sinflarda tartibsizliklar darajasi sezilarli darajada yuqori va o'qituvchilar "ortiqcha nazorat qilish" – o'qituvchilarning (bolalar emas) ehtiyojlarini o'qituvchining asosiy nutqi bilan qondirishga qaratilgan qat'iy yondashuvlarni qo'llashadi.

5. Birgalikda o'rganish. Ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar uchun asosiy namuna bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shunday bolalarga jamoada ishlashni ham pedagog o'rgatadi va bu bolalarning keyinchalik erkin hamkorlik ostida ishlash va o'qishga zamin yaratib beradi.

6. Shaxsiylashtirilgan o'rganish va o'qitish. Oz pedagogik bilim va tajribaga ega o'qituvchilar o'z o'quvchilarining ta'lim tajribasini shaxsiylashtirishga moyil bo'ladi. Ular buni o'z sinflarida bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, boy va xilma-xil bo'lgan o'quv materiallarini taqdim etish orqali amalga oshiradilar. Ular o'qituvchilarning ajralmasligi bo'yicha (masalan, o'z o'quvchilaridan o'z stollarida qolish, fikr bildirmaslik, bolalarning xatti-harakatlari yoki ehtiyojlarini sezmaslik) va o'quvchilarning o'qishini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususan, savodxonlik bo'yicha juda past baholanadi.

Haqiqiy pedagogik bilim va tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar bolalarning ehtiyojlariga juda sezgir bo'ladi, o'z o'quvchilari uchun maxsus tanlangan va moslashtirilgan ajoyib o'quv materiallarini taqdim etadi. Ushbu sinflarda bolalarning individual ehtiyojlari o'qituvchilarning do'stona yondashuvi, yuqori umidlari, mos ravishda qiyin va tabaqalashtirilgan vazifalari orqali qondiriladi. Umuman olganda, o'qituvchilarda qo'shimcha va o'quv dasturlari o'rtasidagi aloqalarni aniq ko'rsatish holatlari ko'p uchramaydi. Haqiqiy pedagog o'qituvchilar aniq darsdan tashqari sohalar bilan aloqa o'rnatishda yaxshiroq va izchil harakat qiladi.

7. Dialogik o'qitish va o'rganish. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun dialogik ta'lim darajasi juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar va o'qituvchilarning dialogik o'qitish va o'rganishdan foydalanishga tahlildan foydalanganliklari va o'quvchilar bilimi va tushunchalarining chuqurligini rivojlantiruvchi munozara, muloqot va fikr almashish kabi metodlar bilan fan yoki mavzu haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishni keltirish mumkin.

8. O'rganishni baholash (AfL). Haqiqiy pedagoglar bolalarni nafaqat o'qitadi, unga o'rgatadi, balki uning o'rganish jarayoni va progressni ham tekshirib boradi. Shuningdek, o'quvchilarning bilimini mustahkamlashga ham yordam beradi. Bunda, bolalarga taqdim etilgan o'qituvchining tavsiya va izohlari ularning o'rganishini baholashning eng asosiy va oddiy usulidir. Ammo bolalarning o'rganishini ularga o'z o'rgangan bilimlarini qayta ko'rib chiqish, takrorlash uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish orqali yordam berish mumkin.

9. Kichik yig'ilishlar. Pedagoglar sinf o'quvchilari bilan tez-tez kichik yig'ilishlar o'tkazish orqali ko'proq muhokama qilish, muammolarni chuqurroq o'rganish va darsda

yoritilgan ish va tushunchalarni kengaytirish uchun foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

TIMSS tadqiqoti o'quv dasturiga yondashuvi juda aniq va tushunarli. U o'quv dasturini uchta darajada tadqiq qilishni belgilab beradi: mo'ljallangan o'quv rejasi, amalga oshirilgan o'quv dasturi va erishilgan o'quv dasturi.

Ular quyidagilar bilan ta'riflanadi:

a) maqsadli – jamiyatlar o'quvchilarni nimalarni o'rganishini maqsad qilgan va bu talablarga javob beradigan ta'lim tizimlari qanday tashkil etilgan;

b) amalga oshirilgan – sinflarda aslida nima o'qitiladi, kim uni o'rgatadi va u qanday o'qitiladi;

c) erishilgan – o'quvchilar nimani o'rgandilar.

Melhuish va uning hamkasblari boshlang'ich sinflarda o'qitish pedagogikasining samaralilik darajasini quyidagicha izohlaydi:

“Bashorat qilinganidan ko'ra, ko'proq o'sishga erishgan va yuqori natijalarni qayd etgan sinflarda pedagogik yondashuvlarning samaradorligi darajasi ancha baland hisoblanadi. Aksincha, bashorat qilinganidan ko'ra kamroq o'sishga erishgan va uncha yuqori bo'lmagan natijalarga ega bo'lgan sinflarda pedagogik yondashuvning samaradorligi kam hisoblanadi”.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglar sinf o'quvchilari bilan tez-tez kichik yio'ilishlar o'tkazish orqali ko'proq muhokama qilish, muammolarni chuqurroq o'rganish va darsda yoritilgan ish va tushunchalarni kengaytirish uchun foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., O'zbekiston. 2016.

2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston. 2016.

3. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo'latova M.I. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish” bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan darslik – T.: “Innovatsiya-ziyo. 2018. – 37-b.

4. Burxonov S., Xudoyorov O., Norqulova Q., Ruzikulova N., Goibova L. Matematika Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T., 2019.

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV. Yashin ISMANDIYAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

Jamoatchilik kengashi:

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12,0. Adadi ____ nusxa. – buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Qarshiboyeva Hilola Murtazayevna

© “Xalq ta'limi” jurnali, 2022.